

ISLOM TARIXIDA ANDALUSIYA FATHI

Dinora Eshboyeva

O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Islomshunoslik yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: dinoraeshboyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqlolada Andalusiya nomi bilan atalgan Pirenay yarimorolining musulmonlar tomonidan bosib olinishi aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu maqlolada musulmonlarning Andalusiyani fathi qilish uchun olib borgan janglari, g‘alaba va mag‘lubiyatlari yoritib o‘tilgan.. 42 yil davom etgan voliylik davri haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: vestgot, Andalusiya, Pirenay, Barbate jangi, Gibraltar, Sahroi Kabir, jizya, fath, voliy.

Hozirgi Ispaniya va Portugaliya mamlakatlari joylashgan Pirenay yarimoroli qadimda arablar tomonidan Andalusiya nomi bilan atalgan. Andalusiyani fath etgan arablar uni “Jaziratul Andalus” (“Andalus oroli”) deb atashgan. Boshqa manbalarda ushbu nom haqida shunday deyiladi, bu mintaqani Andalus deb nomlanishiga sabab, bu mintaqalarga Skandinaviyaning shimoli, Shvesiya, Daniya, Norvegiya va boshqa yondosh mamlakatlardan yovvoyi qabilalar bostirib kelib, ma’lum vaqt o’sha joylarda yashab qolganlar. Bu qabilalarning Olmoniyadan kelganligi ham zikr qilinadi. Bu qabilalar al-fandal yoki al-vandal qabilalari deb nomlangan. Vandallar Iberiya yarim orolini bosib olib, u yerga milodiy 3 – 5 asrlar mobaynida egalik qildilar¹. Shu qabilalarga nisbatan bu mintaqalar Vandalisiya, deb nomlangan. Vaqt o’tib, arablar Vandalisiyani Andalusiya va Andalus, deb talaffuz qilib ketganlar².

Andalusiya qarib sakkiz asr davomida musulmonlar qo‘l ostida bo‘lgan. Ushbu sakkiz asrlik tarixni olimlar 6 davrga bo‘lganlar. Bular: Fath va voliylik davri (711-756), Umaviylar davri (756-1031), Mulukut-tavoif davri (1031-1090), Murobitlar davri (1090-1147), Muvahhidlar davri (1147-1228) hamda G‘arnota amirligi davri (1228-1492).

711-yili Shimoliy Afrikadagi musulmon qo‘sishinlarining bosh qo‘mondoni Muso ibn Nusayrning mavlosi Toriq ibn Ziyod boshchiligidagi qo‘sish Andalusiya hujum

¹ Husayn Mu’nis "Farjul Andalus" (2 - bet), Muhammad Abdullohaman "Davlatul islam fil Andalus" (1/ 27 - 29).

² Al-Hajjiy "Tarixul andalus" (37 - bet), Sirjoniy "Qissatul-Andalus" (15 - bet).

qila boshladi. Musulmonlar Shimoliy Afrikada bir qancha mamlakatlari egallagandan so‘ng ularning oldida janubga Sahroi kabirga yoki shimolga Andalusiyaga qarab yurishlarni davom ettirish masalasi turardi. Ular shimolga qarab yurish qilishga qaror qildilar. Chunki musulmlar fathidan maqsad yerkarni kengaytirish emas, balki Allohning didni yoyish va insonlarga islomdan ta’lim berish edi. Ulkan hududli Sahroi kabirning xalqi oz sonli edi. Shuning uchun ham aholisi ko‘p bo‘lgan Andalusiyaga hujum qildilar. Bu paytda Andalusiyada vestgotlar hukmronlik qilar, lekin davlat ichki nizolar natijasida zaiflashib qolgan edi. Bu holat musulmonlarga jang payti qo‘l keldi.

Torif ibn Molik boshliq sariyya Andalusianing shart-sharoitlarini o‘rganib kelish uchun jo‘natildi. Sariyya qaytganidan so‘ng, Muso ibn Nusayr bir yil tayyorgarlik ko‘rdi, qo‘sishin hozirladi, harbiy yurish rejasini ishlab chiqdi, shundan so‘ng Toriq ibn Ziyod boshchiligidagi yetti ming qo‘sinni Andalus sari safarbar qildi. Musulmon qo‘sishin bahor mavsumida 711 yil 2 may (hijriy 92 yil 5 rajab)¹ kuni Jabal Toriq bo‘g‘ozini kesib o‘tib, bundan so‘ng tarix sahifalariga “Jabal Toriq” nomi bilan bitilgan tog‘ga kelib tushdilar. Jabal Toriq bo‘g‘ozini ham sarkarda Toriq ibn Ziyod sharafiga qo‘yligandir. Yevropaliklar uni buzib talaffuz qilishi natijasida “Xibraltar” yoki “Gibraltar”ga aylanib ketgan. Bundan oldin bu tog“ “Kalpe tog‘i”, deb atalgan edi².

Tarixshunos olim Abdurrahmon al-Hajjiy, Ibn al-KardAbusdan naql qiladi: “Muso ibn Nusayr Toriqni safarbar qilish chog‘ida astoydil duo qildi. Ollohga ko‘z yoshlar bilan musulmon askarga nusrat berishini so‘rab yolvordi”³.

Torif ibn Molik besh yuz kishilik sariyya bilan to‘rtta kemada Andalus o‘lkasiga ilk bor safar qilgandi. Toriq ibn Ziyod o‘sha to‘rtta kemadan foydalanib, yetti ming qo‘sinni dengizning toraygan qismidan olib o‘tdi. Ammo qo‘sishin soni oz vaqtidan so‘ng ko‘payadi, bu haqida Tarixshunos Maqarriy shunday deydi: “Muso Toriq ketgandan keyin, kema yasashga bel bog‘ladi. Hatto u bir nechta kemali bo‘ldi. Besh ming askarni shu kemalarda Toriqqa madad uchun jo‘natdi. Shunda Toriqning askari jami o‘n ikki mingga yetdi”⁴. Jabal Toriq tog‘iga kelib tushgan musulmon askar Jaziratul Xozro , deb atalgan keng mintaqaga qarab yo‘naldi. U yerda Toriq ibn Ziyod Andalusning janubiy mintaqasi chegarachilariga (qo‘riqchilariga) yo‘liqdi va ularga quyidagilarni taklif qildi:

1. Yo Islomni qabul qilasiz, do‘stingiz do‘stimiz, dushmaningiz bizning dushmanimizga aylanadi va mamlakatingiz o‘z qo‘lingizda qoladi.

¹ Ibnu Asir «al-Kamil fit-tarix» (4/268-bet), Ibn Izariy «Al-bayan al-mug‘rib» (2/6), Zahabiy «Tarixul islam» (6/393), Husayn Mu‘nis «Mavsuatu tarixul Andalus» (1/17-bet).

Rog‘ib Sirjoni va ba’zi tarixshunoslari bu hodisaning sha’bon oyida bo‘lganini aytishgan. Sirjoniy «Qissatul-Andalus» (46-bet), Al-Maqarriy «Nafhut-tiyb» (1/231) ga qarang.

² Al-Hajjiy «Tarixul andalus» (49-bet).

³ Al-Hajjiy «Tarixul andalus» (67, 68-bet).

⁴ Al-Maqarriy «Nafhut-tiyb» (1/257).

2. Yo musulmonlarga jizya to‘laysiz, bunda ham ega bo‘lgan narsalaringiz o‘z qo‘lingizda qoladi.

3. Yo biz qarshi urushga kirasiz.

Mana shu uchta yo‘ldan birini ixtiyor etasiz.

Shunda mintaqaga hokimi Tudmir darhol Andalus podshosi Roderikka ahvolni bayon qiluvchi maktub yo‘lladi. Roderik o‘sha paytlar Andalusning poytaxti bo‘lgan Toledo shahrida edi. Maktubda quyidagi jumla ham yer olgan edi: “Bizning yerimizga shunday bir qavm keldiki, ular osmon ahlidanmi yoki yer ahlidanmi bilolmadik”¹. Ammo gotlar qiroli jang qilishni tanlaydi. Roderik jang qilish uchun opasining o‘g‘li Benisio Jaziratul Xozroga jo‘natadi. Ikki o‘rtadagi jang uch kun davom etgan². Bu jangda musulmonlar g‘alaba qozongan. Bu jangda nasroniy askar boshlig‘i Benisio o‘ldirildi³. Bundan xabar topgan Roderik tepe sochi tikka bo‘lib, g‘azab otiga mindi va zudlikla yuz ming askar⁴ to‘plab, janubga tomon otlandi. Toriq ibn Ziyodning esa atigi yetti ming askari bor edi, ustiga-ustak ular orasida otliq suvoriyalar juda oz edi. Toriq Muso ibn Nusayrdan yordam so‘rab maktub yo‘lladi.

Shunda Muso ibn Nusayr Torif ibn Molik boshchiligidida besh ming piyoda askarni Toriqqa yo‘lladi⁵. Shu bilan Toriqning lashkari jami o‘n ikki mingga yetdi. Toriq ibn Ziyod jang uchun munosib makon axtarib, tarix sahifalarida “Barbate vodiysi” (Ba’zi manbalarda bu joyning nomi Lukka, Luqqa, Liqqa deb zikr qilinadi.) nomi bilan tanilgan joyga yetib keldi. U bu joyni urush qilishga eng munosib makonligiga ishonch hosil qildi. Chunki uning janub va sharq tomonida baland tog‘ bo‘lib, orqa va o‘ng taraf bexavotir edi, ushbu taraflardan birorta odamzotning kelishi o‘ta mushkul. Vodiyning so‘l tarafi, ya’ni g‘arbi ham tabiiy himoyali, unda katta ko‘l joylashgan. Toriq ibn Ziyod vodiyning janubidagi kirish joyiga Torif ibn Molik boshchiligidida kuchli askarni musulmon qo‘shtinning orqa tomoni himoyasi uchun tayin qildi. Vodiyning faqat shimol tomonigina g‘anim uchun ochiq qoldirildi... Roderik boshchiligidagi qo‘shtin Barbate vodiysiga yetib keldi. Urush boshlanganining sakkizinchı kuni olivush nihoyaladi, Alloh taolo musulmonlarga nusrat berib, kofirlarning dumini kesdi. Nasroniyarning boshlig‘i Roderik jangda o‘ldirildi. Shunday qilib, Andalusiya musulmonlarga tomonidan 711-714 yillar davomida egallandi va fath davri tugadi.

¹ Al-Maqarriy «Nafhut-tiyb» (1/240).

² Al-Hajjiy «Tarixul andalus» (52-bet).

³ Ibn Izariy «Al-bayan al-mug‘rib» (2/8), Muhammad Suhayl Toqush «Tarixul muslimiyin fil andalus» (37, 38-bet).

⁴ Al-Maqarriy «Nafhut-tiyb» (1/240), Husayn Mu’nis «Fajrul Andalus» (54-bet).

Roderikning askarlari soni borasida ixtiloqlar bor, tarix kitoblarida kelgan bu adadning eng oz miqdori «Tarix ibn Xoldun» (4/117)da 40 ming, eng ko‘p soni «Rovzul mi’tor» (35-bet)da 600 ming bo‘lganligi zikr qilinadi.

⁵ «Axbaru majmu’a» (17-bet), Al-Maqarriy «Nafhut-tiyb» (1/232).

714-yildan boshlab voliylik davri boshlandi va ushbu davr juda ko‘p voliylar almashgani bilan ajralib turadi. 42 yil davom etgan ushbu davrda 20 ta voliy almashdi. Ko‘plab voliylarning almashishiga ichki nizolar, fitnalar va voliylarning ko‘plab g‘azotlarda vafot etishi sabab bo‘lgan. 756-yilgacha voliylik davri davom etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ibn al-Asir, Izzadin Ali. Al-Kamil fit-tarix. – Beirut, 1987.
2. Ibn Izariy. Al-bayan al-mug‘rib. Beirut. Daru Sader - 2016.
3. Al-Maqarriy. Nafhut-tiyb. Beirut. Daru Sader – 2011.
4. Sirjoniy. Qissatul-Andalus. Misr. Iqro muassasasi – 2011.
5. Al-Hajjiy. Tarixul andalus. Qohira. Darul Qalam – 2009.